

REFLEKSIV YONDASHUV TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISH

Odiljonova Gulasal Ilxomjon qizi

Annotatsiya: *Maqola zamonaviy ta’lim jarayonlarida refleksiv yondashuv texnologiyalarini joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etadi. Refleksiv yondashuv – bu o‘quvchi va o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini doimiy tahlil qilishi, baholashi va takomillashtirishi orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi metodik uslubdir. Maqolada refleksiv texnologiyalarni dars jarayoniga integratsiya qilishning metodik vositalari, samaradorlik mezonlari va ularni amalga oshirish bo‘yicha strategiyalar yoritilgan. Shuningdek, maqola maktab va oliy ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni boshqarishda refleksiv yondashuvning rolini tahlil qiladi, uning ta’lim sifatini oshirish va pedagoglarning professional kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijalari refleksiv texnologiyalarni amaliy joriy qilishning ijobiy ta’sirini, shu jumladan, pedagogik qarorlar qabul qilishdagi mustaqillik va ijodiy yondashuvni oshirishga qaratilganligini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *refleksiv yondashuv, pedagogik texnologiyalar, ta’lim jarayoni, professional kompetensiya, ta’lim sifatini oshirish.*

Аннотация: *Статья посвящена теоретическим и практическим основам внедрения технологий рефлексивного подхода в современный образовательный процесс. Рефлексивный подход представляет собой методику, направленную на постоянный анализ, оценку и совершенствование педагогической деятельности учителя и учащихся с целью повышения качества образования. В статье рассмотрены методические средства интеграции рефлексивных технологий в учебный процесс, критерии их эффективности и стратегии реализации. Также проанализирована роль рефлексивного подхода в управлении педагогическим процессом в школах и вузах, его влияние на повышение профессиональной компетентности педагогов и качества образования. Результаты исследования подтверждают положительное воздействие внедрения рефлексивных технологий на самостоятельность и творческий подход в педагогическом принятии решений.*

Ключевые слова: *рефлексивный подход, педагогические технологии, образовательный процесс, профессиональная компетентность, повышение качества образования.*

Abstract: *The article explores the theoretical and practical foundations of implementing reflexive approach technologies in the modern educational process. The reflexive approach is a methodology aimed at the continuous analysis, evaluation, and improvement of teachers’*

and students' pedagogical activities to enhance educational quality. The article examines methodological tools for integrating reflexive technologies into lessons, criteria for their effectiveness, and strategies for implementation. The role of the reflexive approach in managing pedagogical processes in schools and universities is analyzed, highlighting its impact on enhancing teachers' professional competence and educational outcomes. Research findings confirm the positive effects of implementing reflexive technologies, including increased autonomy and creative decision-making in pedagogy.

Keywords: *reflexive approach, pedagogical technologies, educational process, professional competence, educational quality improvement.*

Refleksiv yondashuv texnologiyalarini joriy qilishda monitoring va tahlil ishlari asosiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Bu nafaqat nazorat vositasi, balki doimiy o‘rishni rag‘batlantiruvchi, ta‘lim sifatini chuqur tahlil qilish imkonini beruvchi samarali mexanizmdir. Monitoringning tizimli va tahliliy olib borilishi — tajribaning muvaffaqiyatini aniqlovchi asosiy omillardandir.

Umumlashtirilgan natijalar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish. Refleksiv yondashuv texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlari, kuzatuvlar, testlar, monitoring natijalari va o‘qituvchi-o‘quvchi fikr-mulohazalari asosida bir qator muhim xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tavsiyalar umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish, darslarni interaktiv va samarali tashkil etish uchun xizmat qiladi.[1]

Metodik tavsiyalar: yo‘nalishlar va mazmun

A. O‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar

Refleksiya madaniyatini shakllantirish:

- har bir darsdan so‘ng qisqacha yozma yoki og‘zaki refleksiya qilish odatini rivojlantiring;
- “Nima o‘rgatdim?”, “Nima o‘xshamadi?”, “Nimani o‘zgartiraman?” kabi asosiy savollar asosida o‘z faoliyatingizni baholang.

Refleksiv dars tuzilmasini amaliyotga joriy eting:

- har bir darsda kirish, asosiy va yakuniy bosqichlarda refleksiyaga oid qisqa topshiriqlar bo‘lishi kerak;

- o‘quvchiga o‘z fikrini erkin va tanqidiy bildirish imkonini yarating.

Pedagogik portfelni yuritish:

- dars ishlanmalari, o‘quvchi fikrlari, tahlil varaqalari va yutuqlarni bir joyda to‘plang;
- portfel asosida o‘z faoliyatingizda yutuq va zaif tomonlarni aniqlang.

Metodik hamkorlikni rivojlantirish:

- metodik birlashmalar doirasida o‘zaro dars kuzatish va muhokama qilishni yo‘lga qo‘ying;

- refleksiya asosida birgalikda dars tahlillari o‘tkazing.[2]

B. O‘quvchilar bilan ishlash bo‘yicha tavsiyalar

Refleksiya topshiriqlarini soddalashtiring va bosqichma-bosqich kuchaytiring:

- boshlang‘ich sinflarda “Bugungi darsda men...” kabi oddiy ifodalar bilan;

- yuqori sinflarda esa tanqidiy savollar, esse, tahliliy yozuvlar orqali.

Shaxsiy portfel yuritishni rag‘batlantiring:

- har bir o‘quvchi o‘z rivojlanishi, qiyinchiliklari va yutuqlari haqida yozib borsin.

- portfel dars oxirida o‘zini baholash va rejalashtirish vositasiga aylansin.

O‘quvchilarga tanlov imkonini bering:

- refleksiya shaklini o‘quvchi tanlashi mumkin: yozma, og‘zaki, grafik (rasm, skhema, chizma);

- bu yondashuv o‘quvchining individualligi va faolligini rag‘batlantiradi.

C. Maktab rahbariyati va metodik xodimlar uchun tavsiyalar

Refleksiv yondashuvni metodik siyosatga kiritish:

- har chorakda metodik kengashlarda darslarda qo‘llanilgan refleksiya turlari muhokama qilinsin;[3]

- dars kuzatuvida refleksiya indikatorlari alohida e‘tiborga olinadigan bo‘lsin.

O‘qituvchilar uchun trening va seminarlar tashkil etish:

- refleksiv texnologiyalarni o‘rganish, amaliy mashg‘ulotlar orqali ko‘nikmalarni shakllantirish;

- trening mavzulari: “Darsda refleksiya bosqichlarini loyihalash”, “O‘quvchi fikrlarini tahlil qilish”, “Portfel asosida o‘zini baholash”.

Ichki monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish:

- o‘quvchi va o‘qituvchi refleksiyasi asosida ta’lim sifatining dinamikasini tahlil qilish;

- har semestrda refleksiv faoliyat natijalari asosida umumiy tahliliy hisobot tayyorlash.

Tavsiya etiladigan refleksiya shakllari (jadval ko‘rinishida)

Bosqich	Tavsiya etiladigan refleksiya shakli	Izoh
Boshlang‘ich sinflar	Rangli kartochkalar, og‘zaki mulohazalar	Yashil – tushundim, Qizil – tushunmadim
O‘rta sinflar	“Teskari aloqa varaqasi”, savol-javob, kichik esse	Har darsdan so‘ng 2–3 daqiqalik yozuv

Yuqori sinflar	Metakognitiv savollar, grafik refleksiya, sinfiy tahlil	“Nimani boshqacha qilgan bo‘lardim?”, “Nimadan faxrlanaman?”
----------------	---	--

Refleksiv texnologiyalarni tizimli ravishda ta’lim jarayoniga kiritish, ularni monitoring qilish va natijalari asosida tahliliy-tavsiyaviy ishlarni amalga oshirish pedagogik sifatni yangi bosqichga olib chiqadi. Mazkur metodik tavsiyalar maktab o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishiga, o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan mas’uliyatini oshirishga va ta’limning samaradorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov ishining bosqichlari

1-bosqich: Tayyorlov (2023-2024 o‘quv yili)

- nazariy asoslarni tahlil qilish, ilmiy-adabiyotlar sharhi;
- o‘quvchilar, o‘qituvchilar va rahbar xodimlar bilan so‘rovnoma va suhbatlar o‘tkazish;
- tajriba maktab(lar)ini tanlab olish.

2-bosqich: Asosiy (2023-2024 o‘quv yili)

Refleksiv yondashuvga asoslangan metodik vositalar va topshiriqlarni ishlab chiqish.

- o‘qituvchilar uchun seminar-treninglar tashkil etish;
- sinov darslarini o‘tkazish va kuzatuvlar olib borish;
- o‘qituvchi refleksiyasi (kundalik, intervyu, mini-tahlil jadvallari) asosida faoliyatni tahlil qilish.

3-bosqich: Tahliliy yakuniy (2024-2025 o‘quv yili)

- ilmiy-tahliliy natijalarni umumlashtirish;
- monitoring natijalari asosida xulosa chiqarish;
- tavsiyalar ishlab chiqish va metodik qo‘llanma tayyorlash.

Refleksiv yondashuv asosida ishlanadigan texnologik komponentlar

Komponent	Tavsif
Refleksiya kundaligi	Har bir pedagog tomonidan darsdan so‘ng to‘ldiriladi, muammolar va echimlar yoziladi.
Teskari aloqa kartalari	O‘quvchilardan olinadi, dars haqidagi fikr va takliflar yoziladi.
Ko‘p bosqichli tahlil modeli	"Nima bo‘ldi? Nega shunday bo‘ldi? Qanday takomillashtirish mumkin?" savollariga asoslanadi.
Faoliyat monitoring jadvali	Har haftada refleksiya samaradorligi baholanadi.

Monitoring va baholash mezonlari

- sifat ko‘rsatkichlari: Pedagoglarning reflektiv kompetensiyasi, dars sifatining oshishi.

- natija indikatorlari: O'quvchilarning faolligi, o'zini-o'zi baholash ko'nikmalari, ijtimoiy-psixologik muhitning ijobiylashuvi.

- so'rovnomalar va testlar: Loyihaning boshida va oxirida o'tkaziladi, solishtirma tahlil asosida baholanadi.

Natijada:

- o'qituvchilarning refleksiv madaniyati shakllandi.

- ta'lim jarayoni tahliliy yondashuv asosida olib borildi.

- o'quvchilar o'z-o'zini anglash, baholash va javobgarlikni his qilishga o'rgandi.

- maktabda o'quv jarayonining ichki boshqaruvi takomillashdi.

Tadqiqot ishining 3-amaliy-umumlashtiruvchi bosqichi 2024-2025-yillarda amalga oshirildi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalari bo'yicha Namangan, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbar-hodimlari, o'qituvchilari va oquvchilarining bilimlari kuzatish, anketa so'rovnomalar va testlar asosida o'rganish tahlili natijalariga ko'ra, maxsus kurs o'tkazilgandan so'ng 1301 nafar respondentdan 927 nafari, ya'ni 71 foizida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalarini joriy etish imkoniyatiga ega ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, respondentlarning 260 nafari, ya'ni 20 foizi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalaridan tolaqonli foydalana olish imkoniyatiga ega ekanliklarini namoyon qildilar.[4]

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 114 nafar respondentlar 9 foiz pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalarining ba'zi elementlaridan foydalanish darajasiga etdilar.

Kuzatish, yakunlovchi test va so'rovnomalar natijalari bo'yicha	Respondentlar soni, nafar	Foizda, %
Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalarini joriy etish imkoniyatiga ega	927	71
Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalaridan tolaqonli foydalana olish imkoniyatiga ega	260	20
Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalarining ba'zi elementlaridan foydalanish darajasiga ega	114	9

Yuqoridagi ko'rsatkichlar, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyalari bo'yicha rahbar-hodimlar,

o‘qituvchilar va o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini etarli darajada shakllanganligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarning pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda reflektiv yondashuv texnologiyalarini joriy etishga oid anketa savollari (12 ta savol), umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarining o‘quvchilarda reflektiv ko‘nikmalarni shakllantirishga oid bilim va tajribalarini aniqlashga qaratilgan anketa savollari (12 ta savol) bo‘yicha o‘tkazilgan anketa – so‘rovnomaslari natijalari shuni ko‘rsatadiki, rahbar-xodimlar va o‘qituvchilar Siz uchun reflektiv yondashuv nima degani?(Ochiq savol), Sizning fikringizcha, reflektiv texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun qanday sharoitlar zarur? (Ochiq yozish uchun), Siz dars jarayonini rejalashtirayotganda reflektiv elementlarni qanday shaklda kiritasiz? (Masalan: baholash, yakuniy tahlil, savol-javob va hokazo) (Ochiq savol), Sizningcha, refleksiya nima? Qisqacha izoh bering. Erkin javob shaklida, Refleksiya o‘quvchilarga qanday foyda keltiradi deb o‘ylaysiz? Erkin javob shaklida (fikr bildirilsin)., O‘quvchilarda reflektiv fikrlashni shakllantirishda qanday to‘siqlarga duch kelasiz? Erkin javob shaklida (amaliy tajribaga asoslangan javob kutiladi) kabi savollarga to‘laqonli javob berishdi. Bu esa umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbar-xodimlari va o‘qituvchilarini pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga reflektiv yondashuv texnologiyalariga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini etarli darajada shakllanganligini bildiradi.[5]

Tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatadiki, reflektiv yondashuv nafaqat o‘qituvchining, balki o‘quvchining ham faoliyatini ongli ravishda boshqarishga yordam berdi. Bu yondashuv ta’lim jarayonini insonparvar va shaxsga yo‘naltirilgan tizimga aylantirish imkonini beradi. Tajriba asosida ishlab chiqilgan model va metodik tavsiyalarni boshqa umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga joriy etilishi natijasida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning sifati va samaradorligi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Jumanazarova G. Pedagogik jamoada ijobiy munosabatlar o‘rnatishning psixologik va pedagogik usullari //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2025. – T. 3. – №.1. – C. 282-288
2. Nuritdinova X. N. Maktabgacha ta’limda pedagogik jarayonlarni innovatsion yondashuv asosida loyihalashtirishning mazmun-mohiyati //Analysis of world scientific views. – 2025. – T. 3. – №. 8. – C. 61-68.

3 Odiljanova G.I, The Teacher's Profesional competence In the reflektive management of the pedagogical process // International Journal off pedagogic Volume 05 Issue 10-2025 –P. 263-267 [https://theusajournals.com /index.php/ijp](https://theusajournals.com/index.php/ijp)

4. Odiljanova G.I. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida pedogogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyasini joriy etish va takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishini o'tkazish metodikasi // NamDU Ilmiy axborotnomasi №9 Namangan 2025 –B.739-743